



UDK: 111.1:164.2:164

Mavluda YEKUBOVA,
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent,
O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: mavlyudayakubov0@gmail.com, ORCID: 0009-0006-7440-1263

ToshDIU professori, f.f.d A.Muxtarov taqrizi asosida

MANIFESTATIONS OF COMMUNICATIVE REALITY IN THE CONTEXT OF MODERN DIGITAL TRANSFORMATIONS

Annotation

The article analyzes the intersubjective relations among the forms of manifestation of communicative reality within the framework of modern ontological and epistemological paradigms, their role in the context of argumentation and the culture of communication and thought, as well as the dialogical nature of communicative reality.

Keywords: digital transformation, ontological and epistemological essence, communicative reality, virtual space, communication theory, modern digital transformations, dialogic nature of communicative reality, ontological essence of communicative reality.

ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ

Аннотация

В статье анализируются intersубъективные отношения форм проявления коммуникативной реальности в рамках современных онтологических и гносеологических парадигм, их роль в контексте аргументации, культуры общения и мышления, а также диалогическая природа коммуникативной реальности.

Ключевые слова: цифровая трансформация, онтолого-гносеологическая сущность, коммуникативная реальность, виртуальное пространство, теория коммуникации, современные цифровые трансформации, диалогическая природа коммуникативной реальности, онтологическая сущность коммуникативной реальности.

ZAMONAVIY RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA KOMMUNIKATIV REALLIKNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

Аннотация

Maqolada, kommunikativ reallikning namoyon bo‘lish shakllarining zamonaviy ontologik va gnoseologik paradigmalar doirasidagi intersubektiv munosabatlari, argumentlash, muloqot va tafakkur madaniyati kontekstidagi o‘rni hamda kommunikativ reallik dialogik tabiatga egaligi tahliliga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, ontologik-gnoseologik mohiyat, kommunikativ reallig, virtual makon, kommunikatsiya nazariyasi, zamonaviy raqamli transformatsiyalar, kommunikativ reallikning dialogik tabiati, kommunikativ reallikning ontologik mohiyati.

Kirish. Jahonda raqamli transformatsiya jarayonlari insoniyat mavjudligining ontologik-gnoseologik mohiyat va strukturasi tubdan o‘zgarayotganligi, bunda raqamlashgan kommunikativ reallik borliqning yangi shakli - virtual va interaktiv ontologiyaning ifodasiga aylanib, inson tafakkurining bilish imkoniyatlarini ham qayta belgilanayotganligini gyvohimiz. Bu jarayonda mavjudlik substansial emas, balki axborot oqimlari va algoritmik tarmoqlar orqali o‘zini namoyon etuvchi dinamik hodisa sifatida tushuniladi, bilish esa subyektning individuallashgan faoliyatidan chiqib, sun‘iy intellekt, big-data va global tarmoqlarning kollektiv epistemik faoliyati bilan integratsiyalashgan gnoseologik muhitga aylanmoqda.

Kommunikativ realligning ontologik-gnoseologik asoslari dunyoning yetakchi universitetlarida – Oksford, Stenford, Harvard, MIT, Sorbonna, Humbolt va Tokiyo universitetlarida – falsafaning yangi paradigmaları doirasida chuqur tadqiq etilayotgan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlarda insonning raqamli borliqdagi ontologik maqomi, ong va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning falsafiy mazmuni hamda bilish jarayonining gnoseologik transformatsiyasi konseptual jihatdan tahlil

qilinadi. Masalan, Oksford universitetida olib borilgan “The Philosophy of Information” [1] tadqiqotida aynan raqamlashgan reallik “axborot mavjudligi” (informational being) sifatida talqin etilib, ontologik tuzilmaning axborot shakliga o‘tishi asoslab beriladi. Shuningdek, Stenford universitetidagi R.Capurro va M.Eldredlarning “Hermeneutics and the Phenomenon of Information” [2] tadqiqotlari raqamli muhitda bilish jarayonining gnoseologik shakllanishini, inson va sun‘iy ong o‘rtasidagi bilish faoliyati birligini yoritadi.

Yangi O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda inson faoliyatining ontologik mohiyati va gnoseologik imkoniyatlari yangi bosqichga ko‘tarilib, kommunikativ realligning mazmuni tubdan o‘zgarib, raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va sun‘iy intellektning ijtimoiy hayotga chuqur kirib borishi natijasida inson va texnologiya o‘rtasidagi munosabatlari, bilishning tabiati hamda ijtimoiy ongning tuzilishi yangicha falsafiy yondashuvni talab etmoqda.

Raqamli muhitda kommunikativ jarayonlar real va virtual makonning integratsiyasi asosida shakllanib, insonning bilish faoliyati, identifikatsiyasi hamda ijtimoiy munosabatlari tizimini qayta strukturallashtiradi. Shu nuqtai nazardan,

“raqamli texnologiyalar keng joriy etilgan rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishni ta‘minlash Yangi O‘zbekistonning ham strategik maqsadlaridan biri”[3] ekanligi nafaqat iqtisodiy-modernizatsion vazifa, balki kommunikativ reallikni ontologik jihatdan yangilash va gnoseologik salohiyatni kengaytirish jarayonidir. Mazkur strategik yo‘nalish jamiyatning bilim ishlab chiqarish, axborotni idrok etish va ijtimoiy muloqot mexanizmlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, raqamlashuv jarayonida shakllanayotgan kommunikativ tizimlarning ontologik va gnoseologik asoslarini tadqiq etish, ularning inson mavjudligi hamda bilish faoliyatiga ta‘sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish mamlakatning raqamli taraqqiyot strategiyasini ma‘naviy-falsafiy jihatdan boyitish uchun dolzarb va zarur ilmiy masala hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M.Castellsning “Axborot jamiyati”[4] konsepsiyasida raqamli kommunikatsiya ijtimoiy mavjudlikning yangi ontologik shakli sifatida talqin etilib, insonning ijtimoiy borliqdagi o‘rni tarmoqli tuzilmalar orqali qayta belgilanishi ta‘kidlanadi. J.Habermas esa kommunikativ aql konsepsiyasi asosida raqamli maydonni ijtimoiy ongning intersubektiv shakllanish fazosi sifatida tahlil qiladi.[5] N.Luhmannning tizimlar nazariyasida esa kommunikatsiya ijtimoiy tizimlarning autopoietik o‘z-o‘zini tashkil etish jarayoni sifatida anglanadi, bu esa raqamli reallikning gnoseologik xususiyatlarini yoritishga imkon beradi.[6] Shu tariqa, raqamlashtirilgan jamiyatda kommunikativ reallik inson bilish faoliyatining texnologik vositalar bilan integratsiyalashuvi natijasida shakllanayotgan yangi ontologik-kognitiv holat sifatida talqin etilishi mumkin.

Mazkur muammo milliy falsafiy adabiyotlarda ontologiya, gnoseologiya, mantiq, metodologiya hamda kommunikatsiya nazariyasi yo‘nalishlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ilmiy bilish va fanlar metodologiyasining nazariy asoslari O.F.Fayzullayev tomonidan yoritilib, unda bilish jarayonining tizimliliği va metodologik tamoyillari asoslab berilgan.[7] Borliq va bilishning o‘zaro dialektik munosabati, ontologik hamda gnoseologik kategoriyalarning mazmun-mohiyati B.O.Turayev asarlarida keng tahlil etilgan.[8] Sh.O.Madayeva va T.Xojiyev modernizatsiya jarayonlarini ijtimoiy borliqning yangilanishi bilan bog‘lab, kommunikativ makonning kengayishi bilish jarayonlarining mazmun va shakl jihatdan transformatsiyasiga olib kelishini ta‘kidlaydi.[9] Shuningdek, Sh.O.Madayeva renessans tafakkurida germetik omilning o‘rni haqida so‘z yuritib, ma‘no va bilim talqinining ontologik qatlamlarini ochib beradi, bu esa raqamli kommunikatsiyada axborotning mazmuniy konstruksiyasini tushuntirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.[10]

Kommunikativ realligning ontologik-gnoseologik asoslarini o‘rganish masalasi argumentlash, muloqot va tafakkur madaniyati kontekstida muayyan darajada yoritilgan. Xususan, D.I.Fayzixodjayeva argumentlashning mantiqiy-kommunikativ nazariyasini tahlil qilar ekan, kommunikativ jarayonda dalillashning gnoseologik mexanizmlari hamda ongga ta‘sir etuvchi omillarni ochib beradi.[11] Shuningdek, X.I.Toshov tomonidan ongni manipulyatsiyalashning argumentatsion mexanizmlari axborotlashgan muhitda bilish va ishonirish jarayonlari bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan.[12] Biroq mavjud izlanishlarda aynan raqamlashtirilgan jamiyat sharoitida shakllanayotgan kommunikativ reallikning ontologik maqomi, virtual mavjudlik shakllari hamda bilish jarayonining transformatsiyasi kompleks tizimli yondashuv asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur muammoni zamonaviy raqamli makon, argumentlash va integral dunyoqarash konsepsiyalari uyg‘unligida o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamlashtirilgan jamiyat kommunikativ realligini falsafiy tadqiq etish zamonaviy ontologiya va gnoseologiyaning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida inson tafakkuri, axborot oqimlari va virtual ong o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni tahlil etishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy ilmiy tasavvurlar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji sharoitida kommunikativ reallikning strukturasi yanada murakkablashtirdi, chunki endilikda ma‘no ishlab chiqarish jarayonlari an‘anaviy bevosita muloqot doirasidan chiqib, virtual va algoritmik muhitga ko‘chdi, natijada kommunikativ reallik mediatsiyalashgan, fragmentatsiyalashgan va tezkor transformatsiyaga uchraydigan ko‘rinish kasb etdi. Raqamli platformalar orqali tarqaladigan diskurslar ijtimoiy ongni shakllantirishda beqiyos ta‘sir kuchiga ega bo‘lib, ular nafaqat axborotni uzatadi, balki muayyan interpretatsion ramkalarini ham taklif etadi, shu bois kommunikativ reallik manipulyativ, simulyativ va konstruktiv komponentlarning murakkab sinteziga aylanadi. Bu jarayonda mantiqiy asoslash, argumentativ kompetensiya va tanqidiy tafakkur darajasi kommunikativ reallikning sifat ko‘rsatkichini belgilovchi omilga aylanadi, chunki asoslanmagan yoki buzilgan diskurs ijtimoiy reallikning deformatsiyasiga olib keladi.

Kommunikativ reallik – bu ijtimoiy borliqning ma‘no ishlab chiqaruvchi, legitimlashtiruvchi va normativ tartibga soluvchi diskursiv shakli bo‘lib, u subyektlararo muloqot jarayonida shakllanadi, takroriy kommunikativ amaliyotlar orqali obyektivlashadi hamda zamonaviy raqamli muhit sharoitida mediatsiyalashgan va algoritmik boshqariladigan ko‘rinishga ega bo‘ladi, u ijtimoiy ongning refleksiv mexanizmi sifatida jamiyatning o‘zini anglash, o‘zini tashkil etish va o‘zini boshqarish jarayonlarida markaziy o‘rin tutadi. D.Fayzixodjayeva argumentlashni “muloqot jarayonida ma‘lum nuqtai nazarning maqbulligini asoslash orqali ishonche‘tirodni shakllantirishga qaratilgan faoliyat”[13] sifatida talqin qiladi. U mantiqdagi yolg‘on (fikrning obyektiv reallikka mos kelmasligi) bilan argumentlashdagi yolg‘on (ataylab buzilgan manzara yaratish) o‘rtasidagi farqni aniqlaydi. Ushbu yondashuv kommunikativ reallikda ishonch va haqiqatning konstruktiv hamda destruktiv mexanizmlarini ajratishga imkon beradi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu kommunikativ reallikning normativ-mezoniy asoslarini yoritadi, ammo uning ontologik chuqurligi masalasini to‘liq qamrab olmaydi.

«Kommunikativ reallikning namoyon bo‘lish shakllari» tushunchasi zamonaviy ontologik va gnoseologik paradigmalarda doirasida ijtimoiy-madaniy borliqning subyektlararo (intersubektiv) munosabatlar, diskursiv amaliyotlar va axborot-texnologik oqimlar sintezidan iborat bo‘lgan ko‘p o‘lchovli va dinamik konfiguratsiyasi sifatida tavsiflanadi. Ushbu fenomenal tizim o‘zining mohiyatiga ko‘ra, shunchaki axborot almashinuvi maydoni emas, balki ijtimoiy voqelikni konstruksiyalashning fundamental asosi bo‘lib, unda til, matn va raqamli algoritmlar subyektning dunyo bilan aloqasini moddiy va virtual shakllar uyg‘unligida ta‘minlaydi. Kommunikativ reallikning namoyon bo‘lish shakllari klassik verballikdan tortib trans-medial va kiber-ijtimoiy formatlarga bo‘lgan keng spektrni qamrab oladi, bunda har bir shakl o‘ziga xos kommunikativ mexanizmlar - argumentatsiya, interpretatsiya va manipulyatsiya vositasida ijtimoiy ongda ma‘no-mazmunlar iyerarxiyasini shakllantiradi. Bu jarayon Y.Xabermasning kommunikativ harakat nazariyasidan boshlanib, bugungi kunning poststrukturalistik va kognitiv tahlillarigacha bo‘lgan ilmiy izlanishlarda inson mavjudligining lingvistik va texnologik «ekranlashgan» holati sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, argumentlashning mantiqiy-kommunikativ nazariyasi kontekstida ushbu shakllar diskursiv maydonning barqarorligini

ta'minlovchi konseptual karkas vazifasini o'taydi, chunki har qanday kommunikativ reallik shakli (u intellektual muloqot yoki ommaviy virtual diskurs bo'ladimi) o'zining ichki mantiqiy validligiga va ijtimoiy legitimligiga tayanadi.

Zamonaviy raqamli transformatsiyalar sharoitida kommunikativ reallikning namoyon bo'lish shakllari obyektiv voqelik va virtual simulyatsiyalar o'rtasidagi chegaralarning diffuziyasi bilan xarakterlanadi, bu esa o'z navbatida kommunikatsiyani borliqning yangi ontologik statusi - «yashash muhiti» sifatida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shunday qilib, ushbu tushuncha inson, til va texnologiyaning o'zaro ta'siridan tug'iladigan, uzluksiz yangilanib boruvchi va ijtimoiy ma'nolarni generatsiya qiluvchi yaxlit mazmuniy tizim sifatida ilmiy asoslanadi.

Raqamlashtirilgan va tarmoqlashgan jamiyat sharoitida kommunikativ reallikning mohiyati yanada murakkablashadi, chunki virtual makon, algoritmik filtrlash va ommaviy axborot oqimlari reallikning idrok etilish shakllarini transformatsiya qiladi. Endilikda ijtimoiy voqelikning ko'rinishi ko'proq mediatizatsiyalashgan, simulyativ va tezkor xarakter kasb etib, muloqotning o'zi ijtimoiy mavjudlikning markaziy shakliga aylanadi. Shunday sharoitda kommunikativ reallikni insonning mavjudlik usuli sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir, inson ijtimoiy maydonda aynan muloqot orqali tan olinadi, baholanadi va identifikatsiyalanadi. Demak, kommunikativ reallik - bu ijtimoiy borliqning til va muloqot orqali quriladigan, intersub'yektiv ongda mustahkamlanadigan va tarixiy hamda texnologik omillar ta'sirida o'zgarib boradigan murakkab ontologik-gnoseologik tuzilma bo'lib, u jamiyatning ma'no ishlab chiqarish, legitimlashtirish va o'zini o'zi qayta tashkil etish mexanizmlarini bir butun holda mujassam etadi. X.Toshov ongni manipulyatsiyalashni "ratsionallikni simulyatsiyalash orqali tanqidiy mushohadani bloklovchi mantiqiy va psixologik texnikalar sintezi"[14] sifatida izohlaydi. Bu ta'rif kommunikativ reallikni neytral maydon emas, balki ma'no uchun kurash va ongni boshqarish strategiyalari amalga oshiriladigan maydon sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa, raqamli platformalarda manipulyativ diskursning kengayishi kommunikativ reallikni simulyativ tusga kiritadi. Shu bilan birga, muallifning pozitsiyasida kommunikativ jarayonning integrativ, birdamlikni ta'minlovchi funksiyasi yetarlicha aks etmaganini ko'rish mumkin.

Kommunikativ reallik dialogik tabiatga ega. Unda ishtirokchilar o'z dunyo manzarasini bayon qiladi va qarama-qarshi talqinlar to'qnashuvi jarayonida ma'no qayta shakllanadi. Bu jarayon statik emas, dinamik xususiyat kasb etadi. Konsensus, konflikt, ishonch va shubha birgalikda mavjud bo'lib, tizimning ichki harakatini ta'minlaydi. Ilmiy jihatdan kommunikativ reallikni

insonlar o'rtasidagi nutqiy interaksiya asosida konstitutsiyalanadigan, kelishuv va baholashlar orqali legitimlashadigan, ijtimoiy hatti-harakatlarga yo'nalish beruvchi ma'no tizimi sifatida ta'riflash mumkin. U tarixiy-madaniy kontekstga bog'liq bo'lib, jamiyatning ma'naviy, huquqiy va siyosiy tuzilmalarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, kommunikativ reallik - bu borliqning o'zi emas, balki borliq haqidagi ma'nolarning ijtimoiy shakllanishidir, u insoniyatning tilga asoslangan mavjudligining konseptual ifodasini tashkil etadi. S.K.Turabova argumentativ kompetensiyani mantiqiy tafakkur madaniyatini shakllantiruvchi muhim omil sifatida baholaydi.[15] Uning fikricha, muloqot madaniyati va dalillash ko'nikmalari rivojlangan shaxs kommunikativ makonda manipulyativ ta'sirlarga nisbatan barqarorroq bo'ladi. Bu esa kommunikativ reallik sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ reallik uch qatlamda namoyon bo'ladi: ontologik (ijtimoiy borliq shakli), gnoseologik (bilish va ishonch shakllanish maydoni) hamda aksiologik (qadriyatlar va normativ mezonlar tizimi). U ijtimoiy ongni shakllantiradi, manipulyativ mexanizmlar orqali transformatsiyalanadi hamda erkinlik va javobgarlik o'rtasidagi dialektik munosabatni belgilaydi. Shunday qilib, kommunikativ reallik - bu ma'no ishlab chiqarish, asoslash va qabul qilish jarayonlarining murakkab tizimi bo'lib, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy borliqning strukturaviy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Uning chuqur tahlili mantiqiy-kommunikativ nazariya, ontologik yondashuv va aksiologik mezonlar sintezini talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, kommunikativ reallikning ontologik mohiyati - bu mavjudlikning mediatizatsiyalashgan shaklidir. Raqamlashgan jamiyatda borliq substansial emas, balki axborot oqimlari, tarmoq aloqalari va kommunikativ faoliyat orqali voqelashuvchi jarayonli mavjudlikdir. Shu tariqa "mavjudlik" tushunchasi o'zining an'anaviy metafizik mazmunini yo'qotadi. Umuman olganda quyidagi amaliy taklif beriladi: kommunikativ reallikni boshqarish va yo'naltirishga doir har qanday amaliy harakat, avvalo, falsafiy-metodologik asosga tayangan holda olib borilishi zarur. Ya'ni raqamli jarayonlar insonning ontologik mohiyatiga zid emas, balki uni to'ldiruvchi, rivojlantiruvchi hodisa sifatida talqin etilishi kerak. Shu ma'noda, raqamli kommunikatsiya texnologiyalarini inson tafakkuri, ma'naviy qadriyatlarini va ijtimoiy mas'uliyati bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan gumanitar konsepsiyani ishlab chiqish zarur. Bunda "inson markazli raqamli tafakkur" tamoyilini joriy etish muhim, har qanday texnologik yangilikning asosiy maqsadi insonning ma'naviy va intellektual kamolotiga xizmat qilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Floridi L. The Philosophy of Information. Oxford: Oxford University Press. 2011. - p. 43–57.
2. Capurro R., & Eldred M. Hermeneutics and the Phenomenon of Information. Munchen: Fink Verlag. 2010.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston. NMIU, 2021.
4. Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2000.
5. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Boston: Beacon Press, 1984.
6. Luhmann N. Social Systems. Stanford: Stanford University Press, 1995.
7. Fayzullayev O.F. Falsafa va fanlar metodologiyasi. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2006.
8. Turayev B.O. Ontologiya, gnoseologiya, mantiq va fan falsafasi muammolari. 1-jild. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015.
9. Madayeva S., Tunis K. Socio-philosophical bases of research of modernization processes in Uzbekistan // Ta'limot va ilm asri XXI: tamoyiloti muosir va durmanoi rushd. – 2019.
10. Madayeva S., Toshov K. The need for the factor hermeticism in the renaissance thinking // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – 9-jild, 3-son.
11. Fayzixojayeva D.I. Argumentlash mantiqiy-kommunikativ nazariyasining falsafiy tahlili. - Toshkent, 2023.
12. Toshov X.I. Ongni manipulyatsiyalashning argumentatsion mexanizmlari. – Toshkent, 2025.
13. Toshov X.I. Ongni manipulyatsiyalashning argumentatsion mexanizmlari: Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2025.
14. Turabova S.K. The Relationship Between the Development of Innovative Thinking and Argumentative Competence // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2021. - Vol. 11, Issue 5. – P. 297–300